“Jaloliddin Manguberdi buyuk vatanparvar sarkarda”

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2018-yil 20-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutida o‘tkazilgan uchrashuvda Jaloliddin Manguberdining hayoti va faoliyatini chuqur ilmiy o‘rganish, targ‘ib etish va natijalarini kelajak avlodga yetkazish bo‘yicha berilgan topshiriqning ijrosi bo‘yicha Xorazm Ma’mun akademiyasi olimlari tomonidan “Jaloliddin Manguberdi buyuk vatanparvar sarkarda” nomli 25 bosma taboqli kitob nashr etildi. Mazkur kitob “Navro‘z” nashriyotida chop etilgan.

Kitobda Jaloliddin Manguberdi hayoti va ijodi chuqur o'rganilib, ushbu tarixiy tadqiqotlar natijalarini kelajak avlodlarga yetkazish masalalari yoritilgan.